

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT
STATISTIKA QO‘MITASI



O‘zbekiston
Respublikasida
kichik tadbirkorlik



2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma‘lumotlar



O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik


Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **523,6** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **60,8** mingtaga ko'paygan yoki **13,1** % ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **17,9** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022- yilning yanvar-dekabrida **90,2** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,8** % ga kam demakdir.

2018-2022- yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*




Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **523 556** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **90 177** tani tashkil etdi.


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Toshkent shahrida **106 071** tani yoki jamiga nisbatan **20,3 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **17,9** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **1,4** birlikka oshgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida **35,9** birlik, Navoiy viloyatida **24,8** birlik, Sirdaryo viloyatida **23,0** birlik, Jizzax viloyatida **21,5** birlik va Toshkent viloyatida **19,7** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*

Toshkent sh.	35,9
Navoiy	24,8
Sirdaryo	23,0
Jizzax	21,5
Toshkent	19,7
Buxoro	19,0
Xorazm	15,8
Qashqadaryo	15,5
Farg'ona	15,4
Qoraqalpog'iston Resp.	15,3
Samarqand	15,0
Andijon	14,8
Namangan	13,2
Surxondaryo	12,6

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko‘rsatkich

Toshkent shahar
Yakkasaroy tumani
– 74,1 birlik.

O‘rtacha ko‘rsatkich

Navoiy viloyati
Zarafshon shahri
– 19,3 birlik.

Eng past ko‘rsatkich

Samarqand viloyati
Narpay tumani
– 9,1 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Yakkasaroy tumanida **74,1** birlik, Mirobod tumanida **57,7** birlik, Tomdi tumanida **55,6** birlik, Bektemir tumanida **50,9** birlik, Qorovulbozor tumanida **50,1** birlik, Chilonzor tumanida **50,0** birlik, Guliston shahrida **42,5** birlik, Mirzo-Ulug‘bek tumanida **37,9** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2022- yilda har 1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2021- y.		2022- y.
4 308	Qoraqalpog'iston Resp.	4 308
7 111	Andijon	5 406
6 418	Buxoro	4 413
4 373	Jizzax	4 505
9 463	Qashqadaryo	8 551
4 835	Navoiy	4 323
6 469	Namangan	5 542
10 814	Samarqand	10 613
5 050	Surxondaryo	4 083
2 309	Sirdaryo	2 073
7 799	Toshkent	6 799
9 051	Farg'ona	8 828
4 914	Xorazm	5 655
15 972	Toshkent sh.	15 078


2022- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Toshkent sh.	16,7
Samarqand	11,8
Farg'ona	9,8
Qashqadaryo	9,5
Toshkent	7,5
Xorazm	6,3
Namangan	6,1
Andijon	6,0
Jizzax	5,0
Buxoro	4,9
Navoiy	4,8
Qoraqalpog'iston Resp.	4,8
Surxondaryo	4,5
Sirdaryo	2,3


2022- yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Toshkent shahri – **16,7 %**, Samarqand viloyati – **11,8 %**, Farg'ona viloyati – **9,8 %**, Qashqadaryo viloyati – **9,5 %**, Toshkent viloyati – **7,5 %**, Xorazm viloyati – **6,3 %**, Namangan viloyati – **6,1 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2022- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **34 384** ta, sanoatda **16 191** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **12 018** ta yangidan tashkil etilgan.


Respublikaning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand viloyatining Samarqand shahrida **2 605** ta, Toshkent shahrining Mirzo-Ulug'bek tumanida **1 840** ta hamda Chilonzor tumanida **1 837** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2022- yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022- yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2022- yillar davomida jami **424 073** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida -**156 069** (yoki **36,8 %**) ta, xizmatlar sohasida - **99 198** (yoki **23,4 %**) ta, sanoat sohasida - **84 830** (yoki **20,0 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida -**51 752** (yoki **12,2 %**) ta va qurilish sohasida - **32 224** (yoki **7,6 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalarda so‘nggi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoq-dan ulushi, % da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	4 859	12,6
Parrandachilik	4 082	10,5
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	3 445	8,9
Sabzavotlar yetishtirish	2 683	6,9
Qorako‘l zotlilardan tashqari qo‘ylarni ko‘paytirish	2 415	6,2
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	7 277	13,5
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	4 146	7,7
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	2 789	5,2
Boshqa mebellar ishlab chiqarish	2 410	4,5
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	2 270	4,2
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	5 025	29,3
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	3 949	23,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	3 512	20,5
Qurilish loyihalarini ishlab chiqish	1 044	6,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	783	4,6
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	29 728	27,5
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	18 210	16,9
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	9 633	8,9
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	7 683	7,1
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	5 841	5,4
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	8 658	13,5
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo‘yicha xizmatlar	6 498	10,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	5 177	8,0
Avtomobil transportida yuk tashish	4 060	6,3
Ta’lim sohasidagi yordamchi faoliyat	2 264	3,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, eng ko'p savdo sohasining ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **29 728 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarining **27,5 %** ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'nggi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'nggi yillarda asosan, qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikotaj mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish, deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar, turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida tashkil etilmoqda.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi, % da




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, %da



2022- yilda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **51,8 %** ni tashkil qilib, 2021- yilga nisbatan **2,3** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2022- yilda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **95,9 %** ni, qishloq xo'jaligida **95,3 %** ni, yo'lovchi tashishda **93,2 %** ni, chakana savdoda **79,4 %** ni, qurilishda **71,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha YAIMdagi ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Toshkent sh.	38 904,8
Toshkent	18 549,3
Farg'ona	13 398,3
Andijon	12 077,9
Samarqand	11 262,1
Buxoro	9 237,4
Namangan	8 331,8
Navoiy	6 300,7
Jizzax	5 446,8
Qashqadaryo	5 392,4
Sirdaryo	3 880,5
Qoraqalpog'iston Resp.	3 744,6
Surxondaryo	3 128,8
Xorazm	2 956,0

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **142 611,7** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Toshkent shahri (**38 904,8** mlrd. so'm), Toshkent (**18 549,3** mlrd. so'm), Farg'ona (**13 398,3** mlrd. so'm), Andijon (**12 077,9** mlrd. so'm) va Samarqand (**11 262,1** mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Xorazm viloyatida (**2 956,0** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **25,9 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Jizzax viloyati (**48,9 %**), Namangan viloyati (**45,7 %**), Farg‘ona viloyati (**44,1 %**), Surxondaryo viloyati (**42,9 %**), Samarqand viloyati (**38,3 %**), Toshkent sh. (**36,3 %**), Buxoro viloyati (**33,9 %**), Sirdaryo viloyati (**31,9 %**), Qashqadaryo (**23,6 %**) va Andijon (**22,3 %**) viloyatlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **93 620,8** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **71,6 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **105,3 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Toshkent shahri (**20 122,6** mlrd. so'm), Toshkent (**9 111,1** mlrd. so'm), Samarqand (**6916,2** mlrd. so'm), Farg'ona (**6 906,8** mlrd. so'm), Buxoro (**6 766,0** mlrd. so'm), Andijon (**6 411,0** mlrd. so'm) hamda Surxondaryo (**6 033,6** mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **128 489,5** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **47,6 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **105,6 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Toshkent shahri (**24 108,9** mlrd. so'm), Toshkent (**13 308,9** mlrd. so'm), Samarqand (**10 449,8** mlrd. so'm), Farg'ona (**9 731,7** mlrd. so'm), Sirdaryo (**9 690,7** mlrd. so'm), Buxoro (**9 498,8** mlrd. so'm), Namangan (**9 430,1** mlrd. so'm) hamda Andijon (**8 633,4** mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **347 222,0** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **95,3** % ini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2021- yilga nisbatan **103,4** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Samarqand (**41 249,8** mlrd. so‘m), Andijon (**36 105,6** mlrd. so‘m), Buxoro (**33 212,0** mlrd. so‘m), Qashqadaryo (**32 740,7** mlrd. so‘m), Farg‘ona (**31 921,5** mlrd. so‘m) hamda Toshkent (**30 568,4** mlrd. so‘m) viloyatlarida qayd etildi.

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **253 573,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **79,4 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **108,4 %** ni tashkil qildi.

2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Toshkent sh.	49 886,4
Toshkent	24 098,4
Farg'ona	23 254,4
Samarqand	21 804,4
Andijon	19 498,4
Namangan	18 174,7
Surxondaryo	17 867,9
Qashqadaryo	17 539,6
Buxoro	15 497,7
Xorazm	11 075,3
Navoiy	10 448,5
Qoraqalpog'iston Resp.	10 038,3
Jizzax	9 789,3
Sirdaryo	4 599,9

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Toshkent shahri (**49 886,4** mlrd. so'm), Toshkent (**24 098,4** mlrd. so'm), Farg'ona (**23 254,4** mlrd. so'm), Samarqand (**21 804,4** mlrd. so'm), Andijon (**19 498,4** mlrd. so'm) va Namangan (**18 174,7** mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **173 157,7** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **48,4 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Toshkent shahri (**51 124,7** mlrd. so'm), Toshkent (**17 845,4** mlrd. so'm), Samarqand (**15 458,4** mlrd. so'm), Farg'ona (**14 150,6** mlrd. so'm), Andijon (**11 698,7** mlrd. so'm), Qashqadaryo (**10 724,4** mlrd. so'm) va Namangan (**9 713,5** mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **42,8 %** (74 161,5 mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **24,1 %** (41 726,5 mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda – **4,9 %** (8 566,9 mlrd. so'm) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **4,8 %** (8 231,7 mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,9 %**(1 602,2 mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH dol.





Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH dol.

Ulushi, % da




2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **5 695,8** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **29,5 %** ini tashkil etdi.


2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Sirdaryo viloyatida – **69,2 %**, Surxondaryo viloyatida – **64,0 %**, Xorazm viloyatida – **58,1 %**, Buxoro viloyatida – **53,6 %**, Farg'ona viloyatida – **51,6 %**, Jizzax viloyatida – **49,3 %**, Samarqand viloyatida – **48,6 %** va Namangan viloyatida – **44,1 %** ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatida – **8,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **15 154,1** million AQSH dollarini yoki jami importning **49,4 %** ini tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida – **87,5 %**, Surxondaryo viloyatida – **72,6 %**, Farg'ona viloyatida – **72,5 %**, Sirdaryo viloyatida – **72,1 %**, Namangan viloyatida – **71,9 %**, Qashqadaryo viloyatida – **50,2 %**, hamda Toshkent shahrida **48,7 %** ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **46,6 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **106,9 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **71,1 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **104,3 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2022- yilda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,2 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,2 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,9 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022-yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2022-yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **18 397** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **6 909 (37,5 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **10 095 (54,9 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **1 393 (7,6 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **38,2 % (7 029 ta)**, xizmatlar sohasida – **29,9 % (5 494 ta)**, sanoatda – **17,1 % (3 141 ta)**, qurilishda – **8,6 % (1 584 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,2 % (1 149 ta)** ni tashkil etdi.

2022-yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahri (3 762 ta), Samarqand (1 774 ta), Toshkent (1 724 ta), Farg'ona (1 546 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2017-2022- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2017- yilda **12 976** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilga kelib esa **28 507** taga yetgan yoki 2017- yilga nisbatan **15 531** taga oshgan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2017- yilda **21 296** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilda **42 544** ta yoki **21 248** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar soni esa 2017- yilda **2 840** tani tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilga kelib **5 719** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2017- yilga nisbatan **2 879** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2017-2022 yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



■ yaxshilangan ■ o'zgarishsiz ■ yomonlashgan


Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2017- yilda **21 931** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilga kelib esa **26 042** taga yetgan yoki 2017- yilga nisbatan **4 111** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2017- yilda **12 668** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilda **37 168** ta yoki **24 500** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2017- yilda **2 331** tani tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilga kelib, bu ko'rsatkich **4 989** tani tashkil etib, **2 658** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2017-2022- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2017- yilda **35,0 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilga kelib esa **37,1 %** ga yetgan yoki 2017- yilga nisbatan **2,1 %** birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2017- yilda **57,4 %** bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2022- yilda **55,4 %** yoki **2,0 %** birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2017- yilda **7,6 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilga kelib, bu ko'rsatkich **7,5 %** ga yetgan yoki **0,1 %** ga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2017-2022- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2017- yilda **59,4 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilga kelib esa **38,2 %** ga yetgan yoki 2017- yilga nisbatan **21,2 %** birlik kamaygan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2017- yilda **34,3 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilda **54,5 %** yoki **20,2 %** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2017- yilda **6,3 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilga kelib, bu ko'rsatkich **7,3 %** yoki **1,0 %** birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **39,1 %** ni, savdoda – **38,4 %** ni, xizmatlar sohasida – **38,2 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **58,1 %** ni, sanoatda – **55,8 %** ni, xizmatlar sohasida – **54,9 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **9,2 %** ni, sanoatda – **8,9 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **8,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **46,2 %** ni, savdoda – **44,2 %** ni, xizmatlar sohasida – **43,0 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **53,5 %** ni, xizmatlar sohasida – **51,6 %** ni, sanoatda – **50,8 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **7,1 %** ni, qurilishda – **6,9 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	44,4	44,7	10,9
Band bo'lganlar soni	24,5	68,1	7,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,2	56,0	5,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	29,0	63,8	7,2
Raqobat muhiti	40,8	54,3	4,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	46,8	47,7	5,5
Band bo'lganlar soni	28,6	67,1	4,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,1	57,4	4,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	32,4	62,3	5,3
Raqobat muhiti	42,1	54,0	3,9


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli